

## **BARHAYOT G‘OYALARNING UMRBOQIY TARANNUMI**

H.Jo‘rayev,

FarDU adabiyotshunoslik kafedراسi professori, f.f.d.

Istiqlol sharofati bilan hamda Yangi O‘zbekiston sharoitida yuzaga kelgan imkoniyatlar adabiyotshunoslik fani zimmasiga ham insonning tafakkur qudrati, qalbi, idrok kuchi bilan yaratilgan bebaho merosimizni millat va Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan xolis, haqqoniy o‘rganish, ma’naviy qadriyatlarimizni yanada teranroq, samaraliroq kashf etish mas’uliyatini yukladi.

O‘rta asrlar Sharq mumtoz she’riyati ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan Mavlono Rumiyl adabiy merosi haqida gap ketganda shakl va mazmun, g‘oya va obrazlar, adabiy usul hamda vositalardagi an’anaviylik murakkab tus oladi. Biror qalam sohibining ijodiy mahsuli uning iste’dodi, ma’naviy-ruhiy olami, individual jihatlaridan kelib chiqib o‘rganilmasa, uning yangiliklarini, mahoratini an’anaviylikdan farqlab olish qiyin. Chunki ijodkorning falsafiy-hayotiy, ijtimoiy-ma’naviy tushunchasi tor bo‘lsa, hayotdagi voqea-hodisalarga faylasuf nazari bilan qaray olmasa, ulardan axloqiy xulosalar, falsafiy umumlashmalar chiqara olmasa, u tashqi ta’sir va taqlidchilikdan qutula olmaydi, nari borsa adabiy an’analarning shunchaki davomchisi bo‘lib qolaveradi.

O‘zbek xalqining ham madaniy-ma’naviy hayotidan chuqur o‘rin olgan fors-tojik adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, mutafakkir shayx Jaloliddin Rumiyl ana shunday an’analar doirasidan yuqori ko‘tarila oldi, badiiy ijodning xalqonaligini kuchaytirdi, o‘z ijodiy faoliyati bilan Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari adabiyoti tarixida muhim o‘rinlardan birini egalladi.

Mavlaviya tariqatining asoschisi bo‘lmish Rumiyl serqirra ijod sohibi bo‘lib, undan katta adabiy-badiiy meros qolgan. Tasavvuf ta’limotining yetakchi g‘oyalarini xalqchil hamda yuksak badiiy ifodalash mavlononing ijodiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatdir. Noyob iste’dod sohibi bo‘lgan shayx va shoir o‘z asarlarida tasavvuf ta’limotining vahdati vujud hamda o‘zlikni anglash konsepsiyasini yuksak poetik mahorat bilan targ‘ib qilgan.

Mavlono Rumiyy ijodiy uslubiga xos xususiyat shuki, uning falsafiy ruhdagi she’rlari majoz pardasiga o’ta o’rab tashlanmaydi, xalqona iboralar, sodda ifoda va lo’nda g’oya-maqsad ko’zga tashlanib turadi. Alisher Navoiy ijodida ham Rumiyy an’analariga hamohang ravishda inson nomi bemisl yuksaklikka ko’tariladi. U qanday asar yaratmasin, qaysi mavzuga qo’l urmasin, zamirida insonga bo’lgan mehr-muhabbat tuyg’usi, insonparvarlik g’oyalari ko’zga yaqqol tashlanib turadi.

Ma’lumki, Farididdin Attor axloqiy-ta’limiy mazmundagi “Asrornoma” asarini shogirdi Mavlono Jaloliddin Rumiyyga bag’ishlagan. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, Jaloliddin Rumiyy otasi bilan Haj safari paytida bir necha kun Nishopurda Attor suhbatlaridan bahramand bo’lgan. Rumiyydagi bilimga chanqoqlik, ziyraklik, xushmuomalalik unga ma’qul bo’lgan. Xayrlashuv oldidan yosh Jaloliddinga o’zining mazkur “Asrornoma” asarini tuhfa qilgan. Jaloliddin Rumiyy ham o’z asarlarida ulug’ ustoz va murabbiysi Farididdin Attorni ko’p tilga oladi, undan ilhom, ruhiy madad olishini ta’kidlaydi. Bir umr uning shogirdi va muxlisi bo’lib qolganligidan g’ururlanadi.

*Girdi Attor gasht Mavlono,*

*Sharbat az dasti Shams budash no’sh –*

*(Mazmuni: Mavlono Attor atrofida aylanib yurdi, ammo sharbatni Shamsiddin Tabriziy qo’lidan ichdi).*

O’n ikki maqolatdan iborat bo’lgan mazkur “Asrornoma” dostonida tasavvuf ta’limoti haqida mufassal ma’lumot beriladi, so’fiylik istiloh-atamaları sharhlanadi, javonmardlik ta’limoti keng izohlab beriladi. Maqolotlar tarkibidagi hikoyatlarda Attor aql-zakovat, hushyorlik, sir saqlash, yaxshilik, ehson, shirinsuxanlik, rostgo’ylik, vafodorlikni tashviq etib, zulm, g’aflat, g’arazgo’ylik, fitna, g’iybat, yolg’onchilik va gina kuduratni tanqid qiladi. Ana shu o’lmas umuminsoniy g’oyalar, ezgu fazilatlar talqini Rumiyyning “Masnaviyi ma’naviy” nomli shoh asarida yanada yuksak badiiyat, teran tuyg’ular ifodasi ila tarannum etiladi. Dunyo epik she’riyatining gultojlaridan bo’lmish mazkur asar mingdan ziyod ibratomuz hikoyatlar majmuasi bo’lib, 25 ming baytdan iboratdir.

Rumiyning nuqtai nazariga ko‘ra, Alloh butun borliq va undagi narsa-hodisalarning ma‘nosi, mohiyatidir. Narsalar mohiyatida Yaratuvchi yashiringan bo‘lib, shu tilsim yechilsa, maxfiy xazinaga yetish mumkin. Xazina esa Allohdir. Biroq hamma gap shu tilsimni yecha olishda. Haqqa yetish uchun riyozat bosqichlarini – sinov vodiylarini bosib o‘tish kerak degan qarash shundan kelib chiqadi. Biz bilamizki, “Mantiq-ut tayr” muallifi bo‘lgan Farididdin Attor ham ana shu fikrni olg‘a surar ekan, yana bir nuqtani ilgari suradi: bu Haqni anglash edi. Ulug‘ mutasavvuf shayx va shoirning fikricha, Allohga yetishmay turib, uni tanib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham Simurg‘ni qidirgan qushlar shu maqsadda yo‘lga otlanadilar, riyozat va mashaqqat chekadilar. Biroq izlaganlarida o‘zlarini ko‘rganlaridan so‘ng Allohning mohiyatini anglaydilar. Jaloliddin Rumi pir va shayxning ana shu fikrlarni qo‘llab-quvvatlaydi, mazmun va mohiyat jihatdan yanada boyitadi. Aytmoqchimizki, Rumi ulug‘ pirning sobitqadam izdoshigina emas, qaysi bir ma‘noda ma‘naviy vorisi hamdir. Rumi Sanoiy va Attor asarlarida berilgan vahdat-ul vujud borasidagi majoziy tasvirlarni, ramz va ishoralarni birinchilardan bo‘lib ochiq ifodaladi. Shu bilan birga u Boyazid hamda Xalloy da‘volari Haqqa intiluvchilarning hammasiga tegishli ekanligini ta‘kidlab, Alloh insonning o‘zida mujassamligini ko‘rsatib berdi. Inson shuning uchun yaratilganki, deydi u, inson orqali haqiqat anglanadi. Ammo haqiqatni izlash uning o‘zidan boshlanadi. Jaloliddin Rumi ana shu nazariyani yuksak badiiy talqin etgan, g‘oyalarni keng ommaga yoya olgan mutasavvuf shayx hamda zabardast shoir sifatida Sharq tafakkuri olamida yorqin iz qoldirdi. O‘zbek xalqining ulug‘ mutafakkir shoiri Alisher Navoiy ham “Har ne istarsen – o‘zungdin istag‘il”, deya bong urganida Rumiyning insonni ulug‘lash haqidagi da‘vatlaridan ilhomlangani tabiiy.

Hijriy VI asrdan boshlab Farididdin Attor, Hakim Sanoyilarning sa‘y-harakatlari, ijodlari bilan Sharq adabiyotida buyuk mutasavvif adabiyoti davri boshlandi. Jaloliddin Rumi ijodi misolida esa tasavvuf adabiyoti misli ko‘rilmagan yuksakliklarni ishg‘ol etdi. Ularning izdoshlari esa so‘fiylik axloqi va ta‘limiga doir fikr-mulohazalarini badiiy-estetik jihatdan g‘oyat ta‘sirli ifodalay boshladilar. O‘zbek

adabiyotining yana bir zabardast namoyandasi bo‘lgan Boborahim Mashrab Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asarini “Mabdai nur” (“Nurlarning taralish nuqtasi”) nomi bilan ona tilimizga o‘girdi. Zamondoshimiz, O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarjimasida esa bu asar xalqimiz ma’naviyatini yanada boyitishga xizmat qilmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Boltaboyev H. “Masnaviyi sharif” ma’naviyati: [Mavlono Jaloliddin Muhammad binni Bahouddin Valad Rumi (1207-1273)ning “Ma’naviy masnaviy” kitobi haqida] //Jahon adabiyoti.-2001.-№12.-B.162-166.
2. Rumi Jaloliddin. Ichindagi ichindadur: Falsafiy-ma’rifiy nashr /Ulug‘bek Hamdam tarj.-T.: Yangi asr avlodi, 2001.-199 b. 78
3. Rumi Jaloliddin. Ma’naviy masnaviy: Kulliyot J.1. K.1. /(Tarjima sharhi bilan; Tarjimon Asqar Mahkam; Mas’ul muharrir T.Mahmudov.-T.: “Sharq”.1999.
4. Homidiy H. Ko‘hna Sharq darg‘alari. T.: “Sharq”. 1999